

OGAHIIY LIRIKASIDAGI “VAFO” KATEGORIYASINING FALSAFIY TAHLILI

Sherali Shavkatovich Shavkatov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tadqiqotchisi

Email: sheradonis2022@gmail.com <https://orcid.org/0009-0001-1130-4419>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21933893>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Muhammad Rizo Ogahiy ijodida vafo va sadoqat tushunchalarining axloqiy, falsafiy va ijtimoiy mazmuni tahlil qilinadi. Shoirning gʻazal, ruboiy, qitʼa va boshqa janrlardagi asarlari asosida vafo konsepsiyasining oshiq-maʼshuq munosabatlari, insonlararo munosabatlar hamda dunyoning oʻtkinchiligi bilan bogʻliq jihatlari ochib beriladi. Ogahiy ijodida vafo, avvalo, insonning yuksak axloqiy fazilati, muhabbat va sadoqatning muhim mezoni sifatida talqin qilinishi, bevafo-lik esa salbiy axloqiy hodisa sifatida qoralangani koʻrsatib beriladi. Shuningdek, sadoqat tushunchasining doʻstlik, insoniy munosabatlar, ijtimoiy-siyosiy hayot va komil inson konsepsiyasi bilan bogʻliqligi yoritiladi. Tadqiqotda Ogahiy qarashlari Forobiy, Navoiy, Jomiy va Attor kabi mutafakkirlarning axloqiy qarashlari bilan qiyosiy jihatdan mushohada qilinadi. Tahlil natijasida Ogahiy merosida vafo va sadoqat shaxsiy fazilat doirasidan tashqariga chiqib, insoniylik, ishonch, ijtimoiy barqarorlik va maʼnaviy kamolotning muhim mezoni sifatida namoyon boʻlishi asoslanadi. Mazkur axloqiy qadriyatlarning bugungi yoshlar maʼnaviy-axloqiy tarbiyasidagi ahamiyati ham koʻrsatib beriladi.

Kalit soʻzlar: Muhammad Rizo Ogahiy, vafo, sadoqat, bevafo-lik, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy-falsafiy qarashlar, insoniylik, muhabbat, doʻstlik, komil inson, maʼnaviy kamolot, axloq, falsafiy-estetik qarashlar.

Аннотация. В данной статье анализируется этическое, философское и социальное содержание понятий «верность» и «преданность» в творчестве Мухаммада Ризы Огахи. На основе газелей, рубаи, кытъя и других произведений поэта раскрываются различные аспекты концепта верности, связанные с отношениями влюблённых, межличностными отношениями, а также с философским осмыслением бренности и непостоянства мира. Показано, что в творчестве Огахи верность прежде всего рассматривается как высокое нравственное качество человека, важнейший критерий любви и преданности, тогда как неверность осуждается как отрицательное нравственное явление. Особое внимание уделяется взаимосвязи понятия преданности с дружбой, человеческими отношениями, общественно-политической жизнью и концепцией совершенного человека. В статье взгляды Огахи рассматриваются в сопоставлении с этическими воззрениями таких мыслителей, как аль-Фараби, Алишер Навои, Абдурахман Джами и Фарид ад-Дин Аттар. В результате анализа обосновывается, что в наследии Огахи верность и преданность выходят за рамки индивидуального нравственного качества и выступают важными критериями человечности, доверия, социальной стабильности и духовно-нравственного совершенствования. Также раскрывается значение данных нравственных ценностей для духовно-нравственного воспитания современной молодёжи.

Ключевые слова: Мухаммад Риза Огахи, верность, преданность, неверность, нравственные ценности, социально-философские взгляды, человечность, любовь, дружба, совершенный человек, духовное совершенствование, этика, философско-эстетические взгляды.

Abstract. This article analyzes the ethical, philosophical, and social meanings of the concepts of fidelity and loyalty in the works of Muhammad Riza Agahi. Based on the poet's ghazals, rubai, qit'a, and other literary works, the study explores various aspects of the concept of fidelity in relation to the relationships between lovers, interpersonal relations, and the philosophical understanding of the transience and instability of the world. The article demonstrates that in Agahi's works, fidelity is primarily interpreted as a high moral virtue and an essential criterion of love and loyalty, whereas infidelity is condemned as a negative moral phenomenon. Particular attention is paid to the relationship between loyalty and friendship, human relations, socio-political life, and the concept of the perfect human being. Agahi's views are also examined comparatively in relation to the ethical ideas of such thinkers as al-Farabi, Alisher Navoi, Abdurahman Jami, and Farid al-Din Attar. The analysis demonstrates that in Agahi's intellectual and literary heritage, fidelity and loyalty extend beyond the sphere of individual moral qualities and function as important criteria of humanity, trust, social stability, and spiritual and moral development. The article also highlights the significance of these moral values for the spiritual and ethical education of contemporary youth.

Keywords: Muhammad Riza Agahi, fidelity, loyalty, infidelity, moral values, socio-philosophical views, humanity, love, friendship, perfect human being, spiritual development, ethics, philosophical and aesthetic views.

Muhammad Rizo Ogahiy ijodida insonning ma'naviy-axloqiy qiyofasini belgilovchi vafo, sadoqat, ahd, rostgo'ylik, ishonch va mas'uliyat kabi tushunchalar o'zaro uzviy aloqador holda namoyon bo'ladi. Shoirning mazkur kategoriyalarga munosabati faqat ishqiy munosabatlar doirasi bilan cheklanmay, insonlararo munosabatlar, axloqiy tanlov, ijtimoiy ishonch va shaxsning ma'naviy mas'uliyati kabi masalalarni ham qamrab oladi. Shu jihatdan Ogahiy ijodida vafo tushunchasi insonning so'zi va amali birligi, o'z ahdiga sodiqligi hamda boshqa inson oldidagi ma'naviy majburiyatini anglash bilan bog'liq yaxlit axloqiy-falsafiy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. Shoirning:

“E'timod etma bevafo so'ziga,
Do'stlik birla boqmagil yuziga.
Shum erur hay'ati diydori,
Mayl ko'rguzmagil oning sori.” [9.2023:B.438]

baytlarida vafo tushunchasi, avvalo, ishonch kategoriyasi bilan bog'lanadi. Bu yerda “e'timod” – ishonch tushunchasi markaziy o'rin egallab, uning qarama-qarshi qutbida “bevafo” inson obrazi turadi. Shoir bevafo kishining so'ziga ishonmaslik, u bilan do'stona munosabat o'rnatishda ehtiyotkor bo'lish zarurligini ta'kidlaydi. Mazkur fikr zahirida insonning boshqa shaxsga ishonishi uning axloqiy sifatlarini anglash va baholash bilan bog'liq ekanligi haqidagi qarash mujassam. Falsafiy nuqtayi nazardan, ishonch insonlararo munosabatlarning barqarorligini ta'minlovchi muhim ma'naviy omillardan biridir. Biroq ishonch o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi; u rostgo'ylik, va'daga sodiqlik va amaliy xatti-harakatlar orqali shakllanadi. Shu sababli Ogahiy talqinida vafo ishonchning axloqiy asosi, bevafo-lik esa ishonchning yemirilishiga olib keluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Bu holatda shoir insonning tashqi qiyofasidan ko'ra uning ichki axloqiy mohiyatiga e'tibor qaratadi. Demak, insonni baholashning asosiy mezonini uning mavqei yoki tashqi ko'rinishi emas, balki so'zining ustidan chiqishi va o'zgalarga nisbatan sadoqatli munosabatda bo'lishidir. Ogahiyning:

“Ko'ngulni bog'lama nomard va'dasida dame –
Ki, va'dasida aning bo'lmag'ay vafo hargiz.” [9.2023:B.440]

baytida esa vafo va'da va axloqiy mas'uliyat bilan bevosita bog'lanadi. Shoir insonni nomard kishining va'dasiga ko'ngil bog'lamaslikka chaqiradi. Bu yerda va'da oddiy og'zaki bayonot emas, balki inson zimmasiga muayyan axloqiy majburiyat yuklovchi hodisa sifatida talqin qilinadi.

Va'da berish orqali inson kelajakdagi xatti-harakatini ma'lum darajada o'z zimmasiga oladi. Shuning uchun va'daning bajarilishi insonning axloqiy yaxlitligini namoyon etsa, uning buzilishi so'z va amal o'rtasidagi ziddiyatni yuzaga keltiradi. Ogahiy “va'dasida ... vafo hargiz” bo'lmasligini ta'kidlar ekan, insonning ma'naviy qadr-qimmatini uning aytgan so'zlari bilangina emas, balki o'z so'zini amaliy faoliyatida tasdiqlay olishi bilan belgilanadi, degan falsafiy xulosaga keladi.

Shu nuqtayi nazardan, “nomard” tushunchasi ham muhim mazmun kasb etadi. U shunchaki salbiy shaxsiy sifat emas, balki so'z va amal birligini ta'minlay olmaydigan, o'z majburiyatiga sodiq qolmaydigan shaxsning axloqiy tipini ifodalaydi. Mardlik esa, aksincha, o'z so'ziga egalik qilish, va'dasiga turish va o'zgalarning ishonchini oqlash bilan tavsiflanadi. Demak, Ogahiyda vafo insonning axloqiy qadr-qimmatini belgilovchi mezonlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Shoirning quyidagi misralarida esa chin va soxta vafo o'rtasidagi farq yanada aniq ifodalanadi:

“Chunki da'voyi vafo qilg'un muhabbat rasmda,
Gar jaf o'lsa falakdin bo'lma g'amgin, ey ko'ngul.”

Mazkur baytda “da'voyi vafo” tushunchasining qo'llanishi alohida falsafiy ahamiyatga ega. Chunki “da'vo” va “haqiqat” o'rtasidagi tafovut shoirning axloqiy qarashlarida muhim o'rin tutadi. Inson o'zini vafodor deb e'lon qilishi mumkin, biroq uning haqiqiy vafodorligi so'zda emas, balki amaliy xatti-harakatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, Ogahiy poetik tafakkurida axloqiy fazilatni uning tashqi ifodasi bilan emas, balki real mazmuni bilan baholash tamoyili ilgari suriladi. Bu esa so'z va amal birligi masalasini yuzaga chiqaradi. Agar insonning so'zi va amali bir-biriga mos kelmasa, uning vafo haqidagi da'vosi o'zining axloqiy mazmunini yo'qotadi. Shu ma'noda vafo — insonning o'zini qanday ta'riflashi emas, balki uning qanday yashashi va qanday munosabatda bo'lishi orqali namoyon bo'ladigan fazilatdir.

Mazkur g'oya quyidagi misralarda yanada ochiq ifodalanadi:

“Bevafo-lar qilsalar har va’dakim, yolg’on erur,
Bas, anga aldanmagil, fahm aylabon chin, ey ko’ngul.” [9.2023:B.202]

Bu misralarda vafo, rostlik va ishonch tushunchalari o’zaro bog’langan. Bevafo insonning va’dasi “yolg’on” sifatida baholanadi. Demak, vafo va rostgo’ylik o’rtasida bevosita aloqadorlik mavjud: rostgo’ylik so’zning haqiqatga muvofiqligini, vafo esa o’sha so’zning amalda tasdiqlanishini anglatadi. Shu jihatdan ularni birgalikda insonning axloqiy ishonchligini tashkil etuvchi mezonlar sifatida ko’rish mumkin.

“Aldanmagil” murojaati esa Ogahiy qarashlarida axloqiy hushyorlik masalasini yuzaga chiqaradi. Shoir insonni faqat o’zi vafodor bo’lishga emas, balki soxta va’dani chin va’dadan farqlay olishga ham chaqiradi. Bu jihat vafo konsepsiyasining faol va passiv tomonlarini ko’rsatadi: inson bir tomondan o’z ahdiga sodiq bo’lishi, ikkinchi tomondan esa o’zgalarning soxta va’dalariga ko’r-ko’rona ishonmasligi lozim.

Ogahiy ijodida vafo muammosi shaxslararo munosabatlar bilan cheklanmay, dunyoning beqarorligi va adolat muammosi bilan ham bog’lanadi. Buni quyidagi baytlarda kuzatish mumkin:

“Harob o’lsun, ilohi, gunbazi davvori charxi dun,
Ki doim davri kajdur, tavi shum-u hay’ati vojun.
Aning kajravligi ta’sirindur bu jahon ichra,
Jafo ahli hamisha xurramu ahli vafo mahzun.” [9.2023:B.255]

Bu misralarda shoirning borliq va jamiyatdagi adolat muammosiga munosabati namoyon bo’ladi. “Charxi dun”ning “kajravligi” orqali dunyo tartibidagi beqarorlik, nomutanosiblik va adolatsizlik ramziy tarzda ifodalanadi. Ayniqsa, “jafo ahli hamisha xurramu ahli vafo mahzun” degan qarama-qarshilik axloqiy fazilat va real hayotdagi natija o’rtasidagi ziddiyatni ochib beradi.

Mazkur qarama-qarshilik falsafiy jihatdan muhim savolni yuzaga keltiradi: nega ezgulik va vafo sohibi har doim ham ijtimoiy yoki hayotiy jihatdan mukofotlanmaydi, aksincha, ba’zan jafokor inson muvaffaqiyatga erishadi? Ogahiy ushbu holatni “charxi dun”ning “kajravligi” bilan izohlaydi. Biroq shoir bundan vafo va ezgulikning qadrsizligi haqidagi xulosaga kelmaydi. Aksincha, mazkur ziddiyat fonida vafo va axloqiylikning haqiqiy qiymati yanada yaqqol namoyon bo’ladi. Shu jihatdan “jafo ahli” va “ahli vafo” o’rtasidagi qarama-qarshilikni faqat ishqiy munosabatlar doirasida emas, balki axloqiy qadriyatlar va real ijtimoiy voqelik o’rtasidagi ziddiyat sifatida ham baholash mumkin. Agar jamiyatda vafodor va halol insonlar qadrsizlanib, xiyonatkor va manfaatparast shaxslar ustunlikka ega bo’lsa, bunday holat ijtimoiy munosabatlarda ishonchning zaiflashishiga olib keladi. Shu ma’noda Ogahiy tasvirlagan “kajravlik”ni insonlararo va ijtimoiy munosabatlardagi axloqiy nomutanosiblikning poetik ifodasi sifatida ham talqin qilish mumkin.

Ogahiy ijodida vafo konsepsiyasining eng aniq axloqiy-imperativ ifodalaridan biri quyidagi baytda mujassam:

“Chu ahd etding vafo, albatta, qilg’il,
Va lekin bo’lma ul ahdingga noqis.” [9.2023:B.81]

Ushbu baytda vafo shunchaki ma’naviy fazilat emas, balki axloqiy burch va majburiyat darajasida talqin qilinadi. “Ahd” insonning o’z irodasi bilan zimmasiga olgan majburiyatini bildirsa, “vafo” ana shu majburiyatni bajarishning axloqiy ifodasidir. Shu sababli mazkur baytni Ogahiy axloqiy qarashlarining muhim tamoyillaridan biri sifatida baholash mumkin.

Baytdagi “albatta, qilg’il” shaklidagi qat’iy buyruq ohangi vafo tushunchasining imperativ xarakterini ko’rsatadi. Ya’ni inson ahd qilganidan keyin uni bajarish ixtiyoriy yoki vaziyatga bog’liq hodisa emas, balki uning zimmasidagi axloqiy majburiyatdir. “Ahdingga noqis bo’lma” mazmuni esa insonning so’zi, niyati va amali o’rtasida yaxlitlik bo’lishini talab etadi. Mazkur qarashni ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan yanada kengaytirish mumkin. Chunki insonlararo munosabatlarning aksariyati muayyan ahd, kelishuv va o’zaro majburiyatlarga asoslanadi. Do’stlik, oila, hamkorlik, jamiyat va davlat bilan bog’liq munosabatlarda ham ishonch va va’daga sodiqlik muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois Ogahiy talqinidagi “ahdga vafo” individual axloqdan ijtimoiy axloq darajasiga ko’tariladigan tamoyil sifatida namoyon bo’ladi. Yuqoridagi baytlarning falsafiy tahlili shuni ko’rsatadiki, Ogahiy ijodida vafo konsepsiyasi ko’p qatlamli axloqiy-falsafiy mazmunga ega. Shoir vafo tushunchasini faqat oshiq va ma’shuq o’rtasidagi munosabat bilan cheklamaydi. Unda vafo ishonch, rostgo’ylik, ahd, mas’uliyat, sadoqat, do’stlik, insoniylik va ijtimoiy barqarorlik bilan uzviy aloqada talqin qilinadi.

Ogahiy poetik tafakkurida vafo va bevafo-lik bir-biriga qarama-qarshi bo’lgan ikki axloqiy holatni ifodalaydi. Vafo — so’z va amal birligi, ahdga sodiqlik, o’zgalarning ishonchini oqlash va axloqiy

mas’uliyatni anglash; bevafo-lik esa va’daning buzilishi, ishonchning yemirilishi va insoniy munosabatlarning izdan chiqishi sifatida namoyon bo’ladi.

Shuningdek, shoirning “jafo ahli” va “ahli vafo”ni qarama-qarshi qo’yishi vafo muammosini ijtimoiy adolat masalasi bilan bog’laydi. Bunda insonning axloqiy fazilati har doim ham moddiy yoki ijtimoiy mukofot bilan o’lchanmasligi, biroq uning ma’naviy qimmatini saqlanib qolishi ta’kidlanadi. Shu jihatdan Ogahiy uchun vafo insonning ichki ma’naviy mezon bo’lib, uning shaxsiy qadr-qimmatini va jamiyatdagi munosabatlarning axloqiy sifatini belgilovchi omillardan biridir.

Umuman, mazkur baytlar asosida Ogahiyda vafo konsepsiyasini quyidagi falsafiy tizimda ifodalash mumkin: Ahd → va’da → vafo → ishonch → sadoqat → axloqiy mas’uliyat → insoniylik → ijtimoiy barqarorlik. Shu bilan birga, uning aksi bo’lgan: Bevafo → yolg’on va’da → ishonchsizlik → xiyonat → munosabatlarning buzilishi → axloqiy inqiroz zanjiri yuzaga keladi.

Demak, Ogahiy falsafiy-estetik tafakkurida vafo insonning shaxsiy fazilati bo’lish bilan birga, insonlararo munosabatlarni tartibga soluvchi va jamiyatning ma’naviy-axloqiy barqarorligini ta’minlovchi universal qadriyat sifatida namoyon bo’ladi. Bu jihat shoir merosining nafaqat adabiy-estetik, balki ijtimoiy-falsafiy va axloqiy ahamiyatini ham belgilaydi.

Sadoqat tushunchasi vafo bilan ma’nodosh bo’lib, ko’proq chuqur fidoyilik, samimiy sodiqlik ma’nolarini qamrab oladi. Ogahiy asarida sadoqat masalasi do’stlikda, oshna-og’aynichilikda va shoh-xalq munosabatlarida aks etadi. U “sadoqat” so’zini bevosita kam qo’llagan bo’lsa-da, sodiq yor, sodiq do’st, vijdon va sadoqat mavzulari she’rlarida badiiy ifodasini topgan. Ayniqsa, Ogahiy ruboiy va qit’alarida sadoqatli do’st va bevafo, xiyonatkor kimsalarning qiyosiy tavsifi berilgan. Misol uchun, quyidagi pand-nasihat ruhida qit’a buni yaqqol ko’rsatadi:

“Ey ko’ngul, kimsaki seni sevmagay – qoch oning tegrasiga, aylanma.

Nasihat qildilar o’tganlar: ‘Sevmaganga suykanma.’” [9.2023:B.438]

Ushbu hikmatli satrlarning mazmuni: “Ey dil, kim seni sevmaydi (ya’ni senga sadoqat ko’rsatmaydi), uning atrofida parvona bo’lib aylanishni bas qil. O’tganlar nasihat qilib aytganlar: ‘Seni sevmaganga yuz suqma (mehrini majburan singdirmoqchi bo’lma).’” Bu o’git zamirida sadoqatga doir muhim fikr yotibdi – sadoqatsiz odam bilan do’st tutinma. Zero, seni chin dildan sevmaydigan, yaxshiligingni istamaydigan kimsa senga xiyonat qilishi hech gap emas. Demak, sadoqat o’zaro munosabatlarda hal qiluvchi mezon: sevgi yoki do’stlik bir tomonlama bo’lmasligi lozim, aks holda, u aldamchi. “Sevmaganga suykanma” – bu maqol darajasiga yetgan hikmat bo’lib, xalq orasida ham mashhur (Navoiyning mashhur “Gar ul kim seni sevmadi, dushmaningdir” mazmunidagi bayti ham shunga yaqin). Ogahiy ushbu nasihatni o’z nigohidan qayta ifodalab, sadoqatning ikki tomonlama bo’lishini uqtarmoqda. Ogahiy do’stlik va sadoqat mavzusida bir qator dostoniy asarlarni ham o’zbekchaga tarjima qilgan (masalan, “Yusuf va Zulayho”, “Guliston” tarjimalari). Ularda sadoqatli do’st, vafodor yor obrazlari ko’zga tashlanadi. Xususan, Ogahiy Komil inson sifatleri haqida gapirar ekan, “mard sadoqat va vijdon bilan ish ko’rar” deya ta’kidlaydi. U sadoqatsiz, makkor odamlarni qattiq tanqid qiladi: “bevafo, be-iltifot sipohiylar saltanatga yaqinlashtirilmadi” kabi satrlar bilan tarixiy asarlarida sadoqatsizlikni qoralaydi. Keltirilgan qit’aga ko’ra, sadoqatni Ogahiy quyidagicha talqin qilmoqda: sadoqat – ikki tomonlama sevgiga asosdir, bir tomonlama fidoyilik o’zini haqoratlashga aylanadi. Ko’ngulga (dilga) murojaat qilingan bu satrlarda poetik didaktika yaqqol: agar kimdir seni sevmayotgan bo’lsa, unga o’z muhabbatini majburlab yuklama, unga yaqin yurmagan. Chunki bu – natijasiz va o’zingga zulmdir. Bu pand aslida sadoqat chegarasini bildiradi: sadoqat loyiq bo’lganga, qadrlaydiganga ko’rsatilishi kerak. Agar bir kishi senga yaxshilik ravo ko’rmasa, seni sevmasa – demak, u sadoqatga noloyiq. Unga sadoqat ko’rsatish – suvni qumga quyish kabidir, behuda. Bu – Ogahiy chiqargan xulosa.

Bu pandnoma kengroq ma’noda ham qo’llanadi: jamiyatda ham sadoqatga noloyiq unsurlar bo’ladi – xiyonatkor, sotqin kishilar. Ulardan uzoq yurgan ma’qul. Zero, Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” asarida ham qushlarga pand o’laroq: “Dilda sadoqat bo’lmasa, ul do’st emas” degan jumla bor. Ogahiy ham shu ma’noni o’z tilida qaytaradi. Farobiy hikmatlarida ham sadoqat alohida ta’kidlanadi: “Har kim ilm va hikmat egallamoqchi bo’lsa, axloq-odobli bo’lsin, so’zining ustidan chiqsin, xiyonat va hiyladan yiroq bo’lsin”. Bu erda “so’zining ustidan chiqsin” – vafo, “xiyonatdan yiroq bo’lsin” – sadoqat ko’rsatkichidir. Demak, Farobiy ham sadoqatni komil inson fazilati deb bilgan. Ogahiy keltirgan qit’adagi “sevmaganga suykanma” nasihati ham aslida “xiyonatkor bilan yaqin bo’lma” deganidir.

Ogahiy devonida bevosita “sadoqat” so’zi ishlatilgan satrlarga ham ishora qilish mumkin. Ba’zi murabba’ va muxammaslarida shoir yorga nisbatan sadoqatini izhor etadi: “Sanam, senga sadoqatimni har lahza isbotladim” kabi ohanglar uchraydi. U hatto Olloqulixon davrida siyosiy faoliyat yuritib, Feruzxon

taxtga chiqanda ham, o‘zining xonga sadoqatli mulozim bo‘lib qolishini dil bayoni orqali ifoda etgan. Masalan: “Ogahiy ko‘ngli sulton ravnaqini istar, xon fidoyisi bo‘ldi” singari misralar uning vatanga va xonlikka sadoqatini ko‘rsatadi. Demak, sadoqat tushunchasi Ogahiyda faqat oshiqona emas, balki ijtimoiy-siyosiy sadoqat ma‘nosida ham kelgan. Sadoqat arabcha “sidq” (rostlik, chinlik) so‘zidan bo‘lib, Rostgo‘ylik va samimiyat bilan hamohang tushunchadir. Qur‘onda siddiqlik – payg‘ambarlardan keyin ikkinchi yuksak martaba: “Kim Alloh va Rasuli bilan birga bo‘lishni istasa – siddiqlardan bo‘lsin” (Niso, 69-oyat). Payg‘ambarimizning eng yaqin sahobasi Hazrati Abu Bakrga “as-Siddiq” (eng sodiq) laqabi berilgani ham sadoqat fazilatining Islomdagi ulug‘ o‘rni belgisidir. Hadislardan birida: “So‘zdangda rostgo‘y bo‘l, sadoqat ezgulikka, ezgulik jannatga yetaklaydi”, yana birida: “Bandaning Allohga eng mahbub sifati – sodiq (samimiy) bo‘lishidir” deyilgan. Navoiy “Mahbub ul-qulub”da do‘stning sadoqati haqida shunday yozadi: “Do‘st sadoqat ichra do‘stdir, sadoqatsiz do‘st – dushman mansabidadur”. Bu fikr Ogahiy qit‘asidagi nasihat bilan aynan bir xil: sadoqatsiz kishi do‘st emas, balki dushmandir. Demak, Ogahiy buyuk mutafakkirlar poyida qadam olib, sadoqatni hal qiluvchi mezon sifatida qaraydi. Jomiy “Silsilat uz-zahab” asarida sadoqatni komil insonning uch belgisidan biri deydi (boshqalari ilm va shijoat). Buni u: “Komil kishi so‘zida rost, ishda sobit, do‘stga sadoqatlidir” tarzida bayon etadi. Ogahiy ham devonida adabiy an‘ana bo‘yicha shu fazilatlarni tarannum etgan – masalan, uning ayrim qit‘alarida ilm, odob, sadoqat birga tilga olinib, matlabi shuki, haqiqiy fazilatli inson – ilmlil va sodiq insondir. Ijtimoiy nuqtai nazardan, Ogahiy yashagan muhitga nazar solsak: Xiva xonligi saroy hayotida turli fitna va xiyonatlar bo‘lgan – shoirning tarixiy asarlarida bu qayd etiladi. Masalan, uning “Riyo‘z ud-davla” tarixida ayrim amaldorlar xoinligi qoralangan. Ogahiy o‘sha asarda Xiva xoni Feruzning “bevafo va sadoqatsiz sipohiylarni o‘ziga yaqinlashtirmagani”ni qayd etadi. Bu faktning o‘zi ham sadoqatning qanchalik qadrlanganini ko‘rsatadi. Feruz kabi xon adiblarni, jumladan Ogahiy qadrlar edi – bunga sabab, shubhasiz, Ogahiyning halolligi va sadoqati edi.

Ogahiy sadoqatni insoniylik mezonlaridan biri sifatida talqin etadi. U sadoqatli do‘stlarni olqishlab, sadoqatsizlardan ogohlantiradi. Shoir do‘st tanlash borasida aniq pand-nasihat beradi: “Seni sevuvchi bilan do‘st bo‘lgin, sevmagan (sadoqatsiz) kishidan uzoq yurgin”. Bu hikmat bugun ham har birimiz uchun qo‘llanma bo‘la oladi. Axir, hozir ham “sodiq do‘st – boshdosh, nosodiq do‘st – boshqosh” deganlariday, inson sadoqatsiz kimsadan ko‘ra yolg‘iz yurgani afzaldir. Ogahiy merosidan olingan ushbu saboq – yoshlar tarbiyasida ham, umuman ma‘naviyat targ‘ibotida ham juda foydali manba bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy. Zubdatu-t-tavorix // Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi, izoh va ko‘rsatkichlar muallifi N. Jabborov. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009.
2. Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy Zubdatu-t-tavorix // Nashrga tayyorlovchi: N. Jabborov. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009.
3. Muhammad Rizo Mirob Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy Asarlar. I jild. // Nashrga tayyorlovchi: G‘ulom Karim, muharrir: Subutoy Dolimov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1971.
4. Muhammad Riza Mirab Agahi. Jami‘al-vaqi‘at-i sultani. Ed. by N. Tashev. – Samarkand-Tashkent: IICAS, 2012.
5. Muhammad Rizo Mirob Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy Asarlar. II jild. // Nashrga tayyorlovchi: G‘ulom Karim, Mas‘ul muharrir: Subutoy Dolimov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1972.
6. Muhammad Rizo Mirob Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy Asarlar. V jild. // Nashrga tayyorlovchi: Subutoy Dolimov, muharrir: G‘ulom Karim. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1978.
7. Muhammad Rizo Mirob Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy Asarlar. VI jildlik. Nashrga tayyorlovchi: G‘ulom Karim, muharrir: Subutoy Dolimov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1971-80.
8. Muhammad Rizo Ogahiy Ta‘vizul oshiqin. – Toshkent: O‘zSSR Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 1960.
9. Muhammad Rizo Ogahiy Taviz ul-oshiqin. Devon // Nashrga tayyorlovchi: Rafiddinov S. – Toshkent: Adabiyot, 2023.